

## TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONI TAHLILI

*Jabborova Durdona Jasur qizi*

*Samarqand davlat universitetining*

*Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

*Ismailova Rayxona Fazliddin qizi*

*Samarqand davlat universitetining*

*Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

*Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich*

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universitetining*

*Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

### Annotatsiya

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda barcha sohalarni takomillashtirishning eng muhim omillaridan biri bu kredit hisoblanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tahlilida ham kreditning nechog'lik muhim ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda ham bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga erishish uchun kreditlar dastak vazifasini o'tamoqda. Ushbu maqola aynan tijorat banklarining kredit jarayonlari, kredit tamoyillarini o'z ichiga oladi.

### Abstract

Nowadays, credit is considered one of the most important factors for the improvement of all sectors in the development of the economy. Analysis of the economy of developed countries shows how important credit is. Today, even in the conditions of the market economy, loans serve as a support for the development of entrepreneurship and economic growth in our country. This article includes credit processes and credit principles of commercial banks.

**Kalit so'zlar:** Tijorat bank, kredit, kredit tamoyillari, uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar, kredit operatsiyalari.

**Keywords:** Commercial banking, credit, credit principles, long-term and short-term loans, credit operations.

Hozirda mamlakatimizda jadal ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar kechmoqda. Har bir sohada jumladan iqtisodiyot va uning "lokomotivi" bo'lgan bank tizimi sohasida ham xalqaro andozalarga mos, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan o'tgan yangi islohotlarni tadbiq etish birlamchi maqsad qilib belgilangan. Albatta, iqtisodiyotning rivojlanishi uning o'sish sur'atlari bevosita bank tizimi rivojiga, uning xizmatlar ko'lamining kengayishiga to'g'ri bog'liqlikda kechadi. Zero, prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va bunda aynan bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish keyingi besh yillikda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri qilib belgilanganligi ham bejiz emas.<sup>1</sup> Aynan mana shu strategik maqsadlarga erishish yo‘lida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentabrda PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 12-sentabrda PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 13-sentabrda esa PQ-3272-sonli “Pul kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi yana bir qarorlari qabul qilindi. Bu qaror va farmonlarning ijrosi o‘laroq mamlakatimizda erkin xorijiy valyuta konvertatsiyasi yo‘lga qo‘yildi, banklardan ularning vazifasiga kirmagan lekin ularni qiynab kelgan bir qator vazifalar olib tashlandi, fiskal va monetar siyosat uyg‘unlashtirilib inflatsion targetlash amaliyotga joriy etildi. Albatta, bularning barchasi bank tizimi va iqtisodiyot rivoji yo‘lidadir.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tib borishda aylanma mablag‘lar muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo‘llaridan biri ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va uning samaradorligini oshirish, xom-ashyo, materiallar, yoqilg‘i energiya va boshqa resurslardan to‘g‘ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo‘llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo‘llash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta‘kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini ta‘minlash va oshirish avvalambor aylanma mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq

O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni asosida va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tijorat banklari tomonidan kreditlar o‘z kapitaliga, mustaqil balansiga va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlarga beriladi. Bundan tashqari kreditlar yuridik maqomiga ega bo‘lmagan yakka tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun ham ajratiladi. Tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat‘iy nazar, shartnoma. asosida qisqa (12 oygacha beriladigan kreditlar) va uzoq (1 yildan oshiq muddatga beriladigan kreditlar) muddatli

kreditlar beradilar. Kreditlar asosan mijozning asosiy hisob-kitob hisobvarag‘i joylashgan tijorat banki tomonidan beriladi. Zarar ko‘rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega 8 bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan kreditlar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy beqarorlik, xo‘jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni beshta tamoyil asosida amalga oshiriladi:

1. Kreditning maqsadlilikligi.
2. Kreditning muddatlilikligi..
3. Kreditning qaytaruvchanligi.
4. Kreditning ta‘minlanganligi.
5. Kreditning to‘lovlilikligi.

Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya‘ni pulning xarakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi. Banklar tomonidan kreditlar albatta ma‘lum bir maqsad uchun ajratiladi. Masalan, aylanma mablag‘larni to‘ldirish, asosiy vosita xarid qilish, ish haqi to‘lash va boshqalar uchun ajratiladi. Kredit so‘ralayotgan maqsad va uning samaradorligi darajasi kredit olish uchun taqdim etiladigan biznes rejada o‘z aksini topadi. Bank tomonidan ushbu reja va unda aks ettiriladigan maqsad hamda uning samaradorligi kreditning belgilangan muddatida qaytishiga to‘liq ishonch hosil qilingandagina kredit ajratish uchun qaror qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi va Moliya vazirligining 2013-yil 14-oktyabrdagi 329-B va 98-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 19-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, 2527-sonli “Tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg‘armalari kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrokreditlar berish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan: Davlat maqsadli jamg‘armasi - O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi; Davlat maqsadli jamg‘armasi kredit liniyasi - davlat maqsadli jamg‘armasi 15 tomonidan kichik tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlash uchun tijorat banklariga ajratiladigan mablag‘lar. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qaroriga asosan “Kichik tadbirkorlik sub'yektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to‘g‘risidagi nizom”i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 27- dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami – 2546) ga asosan:

1..Yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash ob'yektlari hisoblanadi.

2.Kreditlar qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

3.Kreditlar tijorat banki va qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq beriladi.

4. Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o‘zini-o‘zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi: qarz oluvchi o‘z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag‘larni • shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha; aylanma mablag‘larni to‘ldirishga - 18 oy muddatgacha; • qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga - 24 oy muddatgacha.

5. Tijorat banklari kreditlar bo‘yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin.

6. Kreditlar qonun hujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ajratilishi mumkin emas.

Tijorat banklarining faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari qo‘llaniladi:

1. Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shakli. Ushbu shakl O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida keng qo‘llaniladigan kreditlash shakli hisoblanadi. Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kredit berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan keyin ssuda hisobraqami ochiladi va kredit bir marotabalik to‘lov shaklida mol yetkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchiga tashlab beriladi. Kreditning maqsadlilik prinsipi mavjud bo‘lganligi sababli, kredit summasini kredit oluvchining joriy hisobraqamiga tashlab berishga ruxsat etilmaydi. Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shaklining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- kreditdan foydalanish samaradorligi ta‘minlanmasligi mumkin, ya‘ni mol yetkazib beruvchi tomonidan tovar o‘z vaqtida etkazilmay qolishi mumkin, mijoz esa, kredit uchun foiz to‘layveradi;

- berilgan kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat qilishning iloji yo‘q. Chunki Kredit summasi to‘liq mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamiga tashlab beriladi.

2. Mijozni kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash shakli. Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kreditlash limiti ajratiladi va ushbu limitdan foydalanish davri belgilanadi. Shuningdek, kreditning foiz stavkasi va mijozdan undiriladigan bir marotabalik komission to‘lov stavkasi 20 belgilanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.Sharq, 1992 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr
3. МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. – Вашингтон : ИЕР МБPP, 1993.- с.75

#### *Internet saytlari*

- <http://www.uba.uz>- O‘zbekiston Banklar Asotsiatsiyasi rasmiy sayti
- <http://www.lex.uz>- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami
- <http://www.cbu.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining veb sayti